

**O`zbekistonda ekologik madaniyat va ekologik resurslarning ekoturizm
ravnaqidagi o`rni
Buxoro davlat universiteti, "Turizm" kafedrası o`qituvchisi
Xayrullayeva N. N.**

Hozirgi kunda ekologik turizmning rivojlanib borishining yana bir sababi turist o`zi qiziqgan tabiat va uning tabiiy sharoiti, biologik resurslari bilan tanishibgina qolmasdan, bu tabiat bag`rida dam ham oladi, tabiat go`zalligini chuqur his qiladi. Uning resurslarini avaylash xohish-istagi paydo bo`ladi. Respublikamizning ekologik turizm salohiyatini hisobga olganimizda ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy resurslari - 4 faslli tabiat mavsumlari, o`zining ekologik tizimlariga ega bo`lgan 5 ta tabiiy landshaft bio-xilma xilliklarida endemik (faqat O`zbekiston tabiatida) turlarning mavjudligidir. O`zbekistonning ekologik turizmdagi resurslar salohiyatiga alohida to`xtalganimizda quyidagi ekoturizm manbalarini keltirish, tavsiflash masalaga ravshanlik kiritadi.

O`zbekiston 3,8 mln. gektarga ega bo`lgan ovchilik - baliqchilik yer maydonlariga ega, ular dan 1 mln. gektarini suv fondi tashkil etadi.

Respublikamiz faunasi 97 turdagi o`txo`r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 tur baliqlarga ega. Bulardan O`zbekiston Respublikasi «Qizil kitobiga» o`txo`r hayvonlarning 24 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi va 78 turdagi umurtqasizlar kiritilgan[4].


O`zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma`lumotlari bo`yicha, O`zbekistonda hozirgi kunda 4148 tur o`simliklar mavjud. Shulardan, 3000 turlari oliy, yovvoyi usuvchi o`simliklar, ulardan 9 % endemiklardir.

O`zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlar tarkibida 2164 km ni tashkil kilgan 10 ta davlat qo`riqxonasi, 6061 km² ni tashkil etgan 2 ta milliy bog` va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko`paytirish respublika markaziy - «Jayron» ekomarkazi, 12186 km² maydonni tashkil etgan 14 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud. Qayd qilingan ma`lumotlardan ma`lum bo`ladiki, O`zbekiston Respublikasi tabiati va uning boyliklari o`zining xilma-xilligi hisobidan ekologik turizm resurslariga juda boy mamlakat hisoblanadi. Shu nuqtai nazaridan tabiatning bunday boyliklaridan oqilona foydalanish bugungi kunning asosiy

talabidir. Bu resurslardan xalqaro tajribalarda o`z samarasini bergan ekoturizmni rivojlantirish modellarini qo`llash orqali, milliy bo`g`, milliy park va maxsus qo`riqxonalarimizdagi ekoturizm va eko madaniyatni yanada yuksaltirishimiz mumkin. O`sib kelayotgan yosh avlod ekologik madaniyat va eko sayohatlar bilan unib borishi, ekoturizmning kelajak istiqbolidir desak, adashmagan bo`lamiz!

O`zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro ahamiyatga ega Avstraliya modelini qo`llashimiz, eko-potensialimizni yanada oshirishga ko`maklashadi.

1-chizma. O`zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning milliy modeli



Manba: Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

Quyidagi modelga asoslanib, ekoturistik manzilgohlarimizni rivojlantirish dasturini ishlab chiqib, ketma-ketlikni amalga oshirsak, kelajakda ekoturizmdan kelib tushadigan daromad 5-10 barobar oshadi.

O'zbekiston ekoturistik resurslari bo'yicha Markaziy Osiyoda boshqaruvchi o'rinlardan birida bo'lib, dunyo bo'yicha 15-o'rinda turadi. Uning hududida 4 mingdan ortiq noyob, turli davrlarga oid memoriy, tarixiy va tabiiy yodgorliklar joylashgan. Ularning ichida ko'pginasi o'rta asrlar me'morchiligi yodgorligi bo'lib, yaxshi saqlangan va diniy qiymatini yo'qotmagan. Bundan tashqari O'zbekiston o'zining boy tabiati va iqlimi, tog'lari, g'orlari, Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysidagi ko'llari, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi cho'llari, sahrolari bilan turistlarni o'ziga jalb qiladi. Ulkan ekoturistik imkoniyatli hududlar Chotqol, Zomin, Shaxrisabz, Nurota, Hisor hududlari, Ugam-Chotqol milliy parki, "Jayron" ekomarkazi bo'lib hisoblanadi. Ekoturizmning rivojlanishiga Qoraqalpog'iston Respublikasi alohida ahamiyat kasb etadi. Orol dengizing murakkab muammolariga qaramasdan, ko'pgina turistlar "kemalar qabristoni"ni, qurib borayotgan Orolni o'z ko'zlari bilan ko'rishni orzu qiladilar.

Ekoturizmni rivojlantirishning yana bir ijobiy tomoni shundan iboratki, mehmonxonalarining bo'lishi talab etilmaydi. Tabiat bo'yniga Palatka va kempinglarni tuzishning o'zi yetarli hisoblanadi. Boshqa tomondan qaraganda esa har bir guruhga mutaxassis ekolog va unga yordamchi hamda turistlarning xavfsizligini ta'minlovchi shaxs kerak bo'ladi. Bundan tashqari har bir tashkil qilinadigan ekoturular "Tabiatni muhofaza qilish" nizmoni tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Ekoturizm sog'lom hayot tarzining boshqaruvchisi bo'lib hisoblanadi. Ekologik turlar sog'lomlashtirishga qaratilgan davolanishlarni, turli xil sport mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonning ko'pgina kurortlari sog'liqni tiklash bilan bog'liq, shuning uchun turistlarni o'ziga jalb qila oladi.

Ekoturizm barqaror rivojlanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Ekologik turizmning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Iqlim, fauna va flora bila bog'liq bo'ladi;
- Ekologik komponentlar bilan bog'liq joylarni o'z ichiga oladi;

- Tarixiy, madaniy va boshqa turizm turlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi;
- Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni talab etadi.

Turizm bilan ekologiya uzviy bog'liq ekan ular bir-biriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ekologiya turizmga ta'sir ko'rsatishi mumkin va ayni paytda turizm ham ekologiyaga ta'sir ko'rsatadi.

Ekologiya turizmga quyidagicha ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- Birinchidan, hech bir sayohatchi tabiati, ekologiyasi yaxshi bo'lmagan joyga sayohat qilmaydi.
- Ikkinchidan, ekologik turizmning maqsadi jismoniy dam olishdan iborat. Agar yaxshi sharoit bo'lmasa, inson jismoniy dam ololmaydi.
- Uchinchidan, ekoturizm ob-havo bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ma'lum bir sayohat mavsumi mavjud bo'ladi.

Ayni vayqda, turizm ham ekologiyaga quyidagicha o'z ta'sirini o'tkazadi:

- M'alum bir ekologik rayonga tinmasdan turistlar kelaversa, u joining ekologiyasi buzilishi mumkin.
- Ekologiyasi bilan birga tozaligi ham buziladi.
- Har bir turistik mavsum tugagandan so'ng turistik rayon qayta tozalanishni talab etadi. Agar tozalanib turilmasa, bora bora sayohatchilar kelmasligiga olib kelishi mumkin.
- Har bir mavsumdan so'ng tozalash ko'p mablag'ni talab etadi, ayni vaqtda, sayohatchilardan olingan daromad uni qoplamasligi mumkin.

2006-yil 26-aprelda Toshkentda xalqaro "Ekosan" tashkiloti va ekologik turizmning markazi "Ekosan-tur" "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi yordamida "O'zbekiston ekoturizmining imkoniyatlari" mavzusida xalqaro uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Oliy Majlis vakillari, Ministerlar Kabineti, javobgar ministerlar, shu bilan birga diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar, mehmonxonalar, VUZlar, turistik firmalar birga qatnashishdi. O'tkazilgan tadbirning asosiy maqsadi respublikadagi ekoturistik imkoniyatlar bilan tanishish va bu mintaqada xalqaro hamkorlikni kengaytirish edi.

Butundunyo Turizm Tashkilotining bosh kotibi Franchesko Frangjialli O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini baland baholadi va Respublikamizda

ekoturizmning muhim faktor sifatida barqaror rivojlanishi va aholining, ayniqsa, qishloq xo'jaligining moddiy ahvolini yaxshilashni qo'llab quvvatladi.

Xulosa qilib, aytadigan bo'lsak O'zbekiston ekoturistik resurslari va eko madaniyatini yuqoridagi modellar asosida rivojlantirib borishimiz, kelajak avlod uchun iqtisodiy va ijtimoiy madaniyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Axir «O'zbekistonning dam olish va salomatlikni tiklash imkoniyatlari, — degan edilar Prezidentimiz Islom Karimov - sayohat marshrutlarining xilma – xil turlarini tashkil etishga va sayohatchilarni butun yil davomida qabul qilishga sharoit yaratadi»- deb aytganlar. Ekspertlar ma'lumotlari ham ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20% qamrab olgan, o'sish sur'ati esa umumiy turizm industriyasining o'sish sur'atidan 2-3 marotaba yuqori ekanligi ko'rsatib fikrlarimiz isboti bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 - yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'lanishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2014- yil 18- yanvar.
3. WTO statistic ma'lumotlari, 2014
4. <http://www.ecocenter.uz/uz>.